

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

FAYZIYEVA GULRUH MUXAMMADI QIZI

**O‘ZBEKISTONDA UY-JOY DAXLSIZLIGI HUQUQINI
TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya huquqi va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of
Philosophy(PhD)**

Fayziyeva Gulruh Muxammadi qizi

О‘zbekistonda uy-joy daxlsizligi huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish3

Файзиева Гулрух Мухаммади кизи

Совершенствование конституционно-правовых основ обеспечения права на неприкосновенность жилища в Узбекистане21

Fayzieva Gulrukh Muxammadi kizi

Improving the constitutional and legal framework for ensuring the right to inviolability of the home in Uzbekistan.....41

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

FAYZIYEVA GULRUH MUXAMMADI QIZI

**O‘ZBEKISTONDA UY-JOY DAXLSIZLIGI HUQUQINI
TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya huquqi va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1032-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (xulosa)) joylashtirilgan. Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,
yuridik fanlar doktori, professor v.b.

Rasmiy opponentlar:

G'afurov Asqar Boyisovich,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Saydullayev Shaxzod Alixanovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 31-mart soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1480-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 18-martda tarqatildi.

(2026-yil 18-martdagi 4-raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M. Xashimhonov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

X.U. Turdiyev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R. Bekov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda uy-joy daxlsizligi masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida, shuningdek, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasida uy-joy daxlsizligini ta'minlash davlatning majburiyati ekanligi belgilangan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 47 mamlakatda uy-joyga noqonuniy kirish bo'yicha 18 mingdan ortiq holat qayd etilgan. Bugungi kunda uy-joy tushunchasi an'anaviy qarashlardan tashqariga chiqib, aqlli uylar va raqamli makonlar kabi yangi shakllarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt, aqlli va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida uy-joylarni himoya qilish tobora murakkab, ko'p qirrali va zamonaviy bo'lib bormoqda. Bularning barchasi raqamli davrda uy-joy daxlsizligini huquqiy himoya qilish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi

Jahonda, ayniqsa, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashga doir xalqaro standartlarni ishlab chiqish, milliy huquqiy asoslarni takomillashtirish, baholash mezonlari va samarali mexanizmlarni belgilash, ushbu huquqni himoya qilishning zamonaviy shakl va usullarini qo'llash bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, davlat organlari faoliyatida videokuzatuv tizimlari, "aqlli uy" texnologiyalari, raqamli ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan keng foydalanilayotgan zamonaviy raqamli muhitda uy-joy daxlsizligini kafolatlash uchun sun'iy intellektidan foydalanishning huquqiy asoslari, ma'lumotlarni himoya qilish standartlari va inson huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarning uyg'unlashgan mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa tadqiqot mavzusining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham keskin oshiradi.

O'zbekistonda "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida olib borilayotgan islohotlar asosida shaxsning uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlash masalasi davlat va jamiyat hayotidagi muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada uy-joy daxlsizligi alohida modda sifatida mustahkamlanib, fuqarolarni ularning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashuvlardan himoya qilish mexanizmlari takomillashtirildi. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining¹ 60-maqсадida ham uy-joy masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur huquqning to'liq ta'minlanishi uchun nafaqat qonuniy asoslarni mustahkamlash, balki zamonaviy raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi sharoitida yuzaga kelayotgan yangi xatar va tahdidlarni hisobga olish zarur. So'nggi to'qqiz yilda 210 million kvadrat metrli turar-joy va noturar-joy obyektlari foydalanishga

¹Prezident tomonidan 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

topshirilgan². Shu nuqtayi nazardan uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashda konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish hamda samarali huquqiy kafolatlar tizimini yaratish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi (1999), "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi (2024), "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi (2019), "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi (2019), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014), "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi (2020), "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008), "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi (2012) qonunlarida belgilangan vazifalarni bajarishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fuqarolarning uy-joy daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari bilan bog'liq olib borilgan nazariy-huquqiy tadqiqotlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

Birinchi, milliy huquqshunoslik fanida uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashning nazariy-metodologik va konseptual yondashuvlarini A. Saidov, A. Shermuhammedova, B. Izzatullayev, G. To'laganova, I. Rustambekov, M. Rustambayev, M. Miraqulov, N. Saburova, O. Xusanov, X. Odilqoriyev, O. Mo'minova, O. O'rinqulova, O. Oqyulov, R. Xudoyberdiyev, S. G'ulomov, S. Rahmonqulov, Sh. Saydullayev, Sh. Nazarov, D. Anvarova, K. Aliyeva va F. Madiyevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ikkinchi, MDH mamlakatlari olimlaridan V.R. Skripko, A.Y. Rijkenov, V.D. Zorkin, A.V. Smirnov, E.A. Vologina, B.V. Prosolov, Y.G. Tkachenko, P.Y. Tyurin, T.D. Oganesyanyan, Y.V. Talina, Y.S. Telina, Y.V. Kudashkin, Y.S. Petrovlar raqamli texnologiyalar doirasidagi maxfiylik bilan bog'liq nazariy huquqiy muammolarni monografik tadqiqotlar shaklida o'rgangan.

Uchinchi, so'nggi yillarda Yevropa va chet elning J.V. Karrol, D. Mixal, A.A. Kariton, A. Arexart, A. Vikeri, K. Robinson, K. Tolbert, K. Naomi, K. Xufnegl, D. Solov, D. Bonner, E. Kach, E. Devid, E. Derek, E. Djuli, E. Lexuk, F. Borgezius, G. Garnett, I. Makoto, J. Roberts, J. Xadson, J. Xolt, K. Barker, K. Mossberger, L. Brandeys, L. Straxilevits, L. Bigreyv, L. Xodjes, L. Suini, M. Richards, M. Makvikar, M. Shvarts, N. Karli, O. Robinson, P. Om, P. Dikson, R. MakNil, R. Vaks, R. Gellman, R. Miller, S. Livingston, S. Tarrou, S. Uorren, T. Merfi, T. Vayant kabi bir qator olimlari tomonidan uy-joy daxlsizligining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8834>.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga kiritilgan va ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini va uni amalga oshirish mexanizmini nazariy bilimlar, xalqaro standartlar va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida uy-joy daxlsizligi huquqining mazmuni, mohiyati va konstitutsiyaviy-huquqiy mohiyatini ochib berish;

uy-joy daxlsizligi huquqining evolyutsiyasi va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

O'zbekistonda uy-joy daxlsizligi huquqining huquqiy asoslari shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilish;

inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tizimida uy-joy daxlsizligi huquqining o'rnini qiyosiy huquqiy tahlil qilish;

uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadqiq etish;

O'zbekiston qonunchiligida uy-joy daxlsizligi huquqining cheklanishini tadqiq etish;

uy-joy daxlsizligi huquqiga rioya etilishini kafolatlovchi konstitutsiyaviy mexanizmlarning rivojlanishini o'rganish;

uy-joy daxlsizligi huquqini amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining o'rni va ta'sirchanligini tadqiq etish;

raqamlashtirish va sun'iy intellekt sharoitida uy-joy daxlsizligi huquqining ta'minlanish mexanizmlarini tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida insonning uy-joy daxlsizligiga doir konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish va ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlash va himoya qilish bilan bog'liq konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro standartlar, shuningdek, ushbu huquqni amalga oshirish mazmuni va mexanizmlarini yorituvchi nazariy konsepsiyalar va doktrinal yondashuvlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni o'tkazish jarayonida qiyosiy-huquqiy, rasmiy-huquqiy, mantiqiy, ijtimoiy so'rov, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, ekstrapolyatsiya, lingvistik, tizimli va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inson hayoti daxlsizligi kafolatlari va huquqiy himoyasini ta'minlashda har kimning uy-joy daxlsizligi huquqini konstitutsiyaviy huquq sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

uy-joyga kirish, shuningdek, uni olib qo'yish va ko'zdan kechirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yilishiga oid qoida Konstitutsiya darajasida mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

shaharsozlik faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlarning barcha respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiyligini kuchaytirish zarurligi asoslantirilgan;

shaharsozlik faoliyati sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi organ o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallar, ma'lumotlar va axborotni vazirliklar, idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan so'rashi va olishiga oid vakolat qonun bilan belgilanishi zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uy-joy daxlsizligi huquqining tabiati, xususiyatlari, yetarlicha aks ettirilmaganligi bois "uy-joy daxlsizligi huquqi" fenomenining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, ilmiy va amaliy qo'llash uchun taklif etilgan;

uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi tahlil qilinib, tegishli huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari va rivojlanish dinamikasi ilmiy izohlab berilgan;

amaldagi protsessual qonunchilikda uy-joy daxlsizligi huquqini cheklash asoslari va tartib-taomillarda mavjud bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan aniq qonunchilik takliflari kiritilgan;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining faoliyatida uy-joy daxlsizligi huquqiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida maxsus o'quv dasturlari va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish zarurligi asoslantirilgan;

uy-joy daxlsizligi huquqi buzilishi holatlarini tezkor aniqlash va samarali huquqiy himoya choralari ko'rish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan monitoring va hisobot berish tizimini joriy etish ;

ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari orqali insonlarning uy-joy daxlsizligi huquqiga oid huquqiy xabardorligini oshirish bo'yicha maqsadli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, qonunchilikning tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda konstitutsiyaviy huquq, konstitutsiyaviy huquqning dolzarb ilmiy-amaliy muammolari fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uy-joy daxlsizligi huquqini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini

takomillashtirishda, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uy-joy daxlsizligi huquqini takomillashtirish sohasidagi tadqiqotlarning olingan ilmiy natijalaridan quyidagi qonun hujjatlarida foydalanilgan:

har kimning uy-joy daxlsizligiga bo'lgan huquqini konstitutsiyaviy darajada belgilash taklifi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi to'rtinchi qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 30-oktabrdagi 04/10-10-41-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi uy-joy daxlsizligi huquqini konstitutsiyaviy darajada ta'minlash va bu boradagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

uy-joyga kirishga, shuningdek, uni olib qo'yish va ko'zdan kechirishga faqat qonunda bilan belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yilishiga oid taklif yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi beshinchi qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 30-oktabrdagi 04/10-10-41-son dalolatnomasi). Ushbu normaning kiritilishi uy-joy daxlsizligi huquqi sud qarori bilan yoki qonun hujjatlariga muvofiq cheklanishi mumkinligini konstitutsiyaviy darajada belgilashga xizmat qiladi;

shaharsozlik faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiylikiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 18-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 30-oktabrdagi 04/10-10-41-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi uy-joy daxlsizligi huquqining institutsional va huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi;

shaharsozlik faoliyati sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi organ o'z vakolatlariga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni, ma'lumotlar va axborotni vazirliklar, idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan so'rashi va olishiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 27-moddasi ikkinchi qismi 11-xatboshisida ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 30-oktabrdagi 04/10-10-41-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi shaharsozlik sohasida davlat nazoratining samaradorligini va ochiqqligini oshirish orqali uy-joy daxlsizligi hamda fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan 6 ta maqola (3 tasi xalqaro nashrlarda) (shundan 3 tasi xalqaro nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 9 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Uy-joy daxlsizligi huquqining nazariy-huquqiy asoslari va rivojlanishi”** deb nomlanadi. Bu bob mazkur huquqni himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlarni o‘rganishga hamda uning mohiyati va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini tushunishga oid nazariy yondashuvlarni tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida ushbu huquqni mustahkamlovchi asosiy tamoyillar va me‘yorlar, uni amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatadigan omillar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti va uy-joy daxlsizligi huquqi buzilganda uni himoya qilish usullari ham tahlil qilinadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi uy-joy daxlsizligi huquqining tushunchasi, mohiyati va konstitutsiyaviy-huquqiy tabiatiga bag‘ishlangan. Bu paragrafda N.S. Jeleznyak, P.Y. Tyurin va D. Mayhill fikrlari o‘rganilib, ularning qarashlari qisman o‘xshash ekanligi qayd etilgan.

Muallif fikricha, uy-joy tushunchasi kengroq ma’noga ega. Uy-joy deganda, mulk-mulkning va qurilish materialining turidan qat’i nazar, shaxs qonuniy asosda egalik qilish va foydalanish huquqi bilan vaqtincha yoki doimiy yashaydigan, chegarasi belgilangan har qanday joy tushuniladi.

R. Aleksey va L. Fyuller kabi olimlar shaxsning uy-joyi – faqat moddiy mulk emas, balki inson erkinligining huquqiy himoyalangan makonidir, ya’ni davlat uchun “qonun bilan cheklangan hudud”, inson uchun esa “qonun bilan kafolatlangan erkinlik makonidir”, degan zamonaviy yondashuvlar ajratib ko‘rsatilgan.

Muallif doktrinal fikrlardan kelib chiqib, uy-joy daxlsizligi huquqi shaxs va davlat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi *“huquqiy suverenitetning mikromodeli”* sifatida talqin qilinishi lozim, degan ilmiy yondashuvni ilgari suradi. Uy-joy daxlsizligi – bu insonning shaxsiy suverenitetini amalda namoyon etuvchi huquqiy hudud bo‘lib, davlat uchun qonun doirasidan chiqmaslik majburiyatini, shaxs uchun esa shaxsiy hayot va qadr-qimmatni himoya qilish kafolatini ifodalaydi.

J. Solov, L. Strahilevitz, R. Epshteyn kabi olimlarning “uy-joy daxlsizligi huquqi”, shaxsiy hayot hududi, davlat-shaxs muvozanati kabi masalalarga oid ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilib, muallif uy-joy daxlsizligi huquqi – insonning shaxsiy hayoti, sha’ni va qadr-qimmatini davlat yoki boshqa shaxslarning noqonuniy aralashuvidan himoya qiluvchi, insonning shaxsiy muhitini huquqiy jihatdan kafolatlaydigan konstitutsion huquqidir degan yondashuvni ilgari suradi.

Tadqiqotchi ilmiy ishlar (F.X. Madiyev, V.A. Belov, Y.G. Tkachenko) tomonidan uy-joy daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati o‘rganilib, u nafaqat qonun bilan e’tirof etilishi va himoya qilinishi, balki fuqarolarning shaxsiy erkinligi va daxlsizligini ta’minlashda muhim ijtimoiy-huquqiy ahamiyatga ega ekanligi, bu huquq huquqiy tartibot asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi qayd etilgan. Shuningdek, har bir inson o‘z shaxsiy makonida o‘zini himoyalangan va erkin his qiladigan, barqaror va adolatli jamiyat uchun sharoit yaratadi.

Muallif tomonidan uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlash bo'yicha mavjud nazariy qarashlar tizimli tahlil qilinib, bu boradagi xalqaro va milliy amaliyotdan kelib chiqib, uchta asosiy doktrinal yondashuv – "liberal", "ijtimoiy-huquqiy" va "pragmatik" modellarning ilmiy tipologiyasi ishlab chiqilgan. Uy-joy daxlsizligi bo'yicha uchta yondashuvning afzalliklarini birlashtirgan integrativ konstitutsiyaviy model taklif etiladi. Unga ko'ra, shaxs daxlsizligi erkinlik va davlat xavfsizligi o'rtasidagi haqiqiy konstitutsiyaviy muvozanatni ta'minlashga, turarjoy daxlsizligini himoya qilishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga qodir.

Muallif uy-joy daxlsizligi huquqining tadrijiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, turli mamlakatlarning urf-odatlarini, huquqiy an'analari va konstitutsiyaviy normalarida shakllangan uy-joy daxlsizligi tamoyillari zamonaviy "shaxsiy makon" tushunchasining shakllanishi va ularni huquqiy tizimlar doirasida himoya qilish uchun asos bo'lgan, degan yondashuvni ilgari suradi.

Izlanuvchi, L.T. Lee, G. Bronshteyn, C. Slobogin kabi olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganib, zamonaviy raqamli muhitda turarjoy daxlsizligi jismoniy makon bilan cheklanmay, shaxsiy ma'lumotlar, audio-vizual kuzatuv tizimlari, "aqli uy" texnologiyalari va sun'iy intellekt orqali shakllanayotgan raqamli makonni ham qamrab oluvchi kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi degan yondashuvni ishlab chiqadi. Bunday sharoitda davlatning majburiyati faqat uy-joyga noqonuniy kirishni cheklash bilan emas, balki raqamli xavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va intellektual tizimlar orqali noqonuniy kuzatuvdan himoya qilish kabi yangi avlod konstitutsiyaviy kafolatlarini shakllantirish bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot doirasida V.D. Zorkin va L.V. Smirnovning ilmiy qarashlari tahlil qilinarkan, uy-joy daxlsizligi huquqi nafaqat mulkdorga, balki uning roziligi bilan vaqtincha istiqomat qilayotgan shaxslarga ham tegishlidir, degan yondashuv ilgari suriladi.

Tadqiqotchi Y.S. Tsybulnik va F.G. Mischenkoning asarlarining tahlili asosida uy-joy daxlsizligi huquqining ildizlari qadimgi huquqiy an'analarga borib taqalishini aniqladi. Xususan, Rim huquqidagi "Civis Romanus sum" formulasi shaxsning huquqiy maqomi va uning yashash makoni daxlsizligini kafolatlagan bo'lsa, qadimgi Yunon qonunchiligida, jumladan, "Drakon qonunlari"da, shaxsiy makon "muqaddas joy" sifatida e'tirof etilib, uni tahqirlash qat'iy taqiqlangan. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, mazkur huquqiy an'analarda uy-joyni insonning huquqiy va ma'naviy himoya qilingan shaxsiy hududi sifatida qarashning shakllanishiga tarixiy-psixologik va huquqiy asos bo'lgan bo'lib, zamonaviy "uy-joy daxlsizligi" institutining arxaik manbalari sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi tahlillari shuni ko'rsatadiki, uy-joy daxlsizligi huquqi tarixan milliy konstitutsiyaviy tizimlarda bosqichma-bosqich shakllangan va keyinchalik xalqaro huquqning universal standartiga aylangan. Ushbu huquqning birinchi konstitutsiyaviy ifodasi AQShning Huquqlar to'g'risidagi Billga IV tuzatishida qidiruv va ichki aralashuvni qat'iy protsessual mezonlar bilan cheklash edi. Fransiya (1791) va Polsha (1791) konstitutsiyaviy tajribasi uy-joyni shaxsiy erkinlik va daxlsizlikning muhim elementi sifatida e'tirof etuvchi yondashuvni shakllantirdi. Bu milliy tajribalar keyinchalik 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktida umumlashtirilib, uy-joy daxlsizligining xalqaro-huquqiy mazmuni – shaxsiy hayot, qadr-qimmat va

huquqiy xavfsizlikni asossiz aralashuvdan himoya qilishga qaratilgan fundamental huquq sifatida mustahkamlandi. Ushbu evolyutsiya uy-joy daxlsizligi institutining mulkiy huquq doirasidan chiqib, shaxsning huquqiy-avtonomiya makoni sifatida talqin etiladigan zamonaviy konstitutsion konsepsiyaga aylanganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi konvensiyasi kabi mintaqaviy bitimlar muayyan hududiy sharoitlarda uy-joy daxlsizligi huquqining ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu hujjatlar fuqarolar uchun o'z huquqiy tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda aniq kafolatlarni belgilaydi.

Muallif uy-joy daxlsizligi huquqining O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilar ekan, ushbu institut mamlakatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq holda bosqichma-bosqich takomillashganini ko'rsatadi. Bu esa uy-joy daxlsizligi huquqining tarixiy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish, uning mazmunini turli davrlardagi davlat siyosati, normativ-huquqiy islohotlar va shaxsning konstitutsion maqomi bilan bog'liq holda ilmiy asosda baholash zarurligini taqozo etadi.

Shu munosabat bilan uy-joy daxlsizligi huquqini rivojlantirishning beshta bosqichlari ajratib ko'rsatilgan, ya'ni:

birinchi bosqich: 1918-yildan 1936-yilgacha bo'lgan davr;

ikkinchi bosqich: 1937-yildan 1977-yilgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich: 1978-yildan 1991-yilgacha bo'lgan davr;

to'rtinchi bosqich: 1992-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davr;

beshinchi bosqich: 2023-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr.

O'zbekistonda uy-joy daxlsizligi masalasi Sovet hokimiyati o'rnatilgandan beri faol rivojlanib kelmoqda. Ushbu huquq rivojlanishining ikkinchi bosqichi 1936-yilda SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqida ilk bor konstitutsiyaviy darajada muhokama qilingan. Aynan shu davrdan boshlab O'zbekiston qonunchiligida uy-joy daxlsizligi huquqi tizimli ravishda himoya qilina boshlandi va uning ahamiyatiga alohida urg'u berildi.

Uchinchi bosqichda qabul qilingan qonunlar ushbu huquqni ham konstitutsiyaviy, ham qonunchilik darajasida mustahkamlash va takomillashtirishga qaratildi. O'zbekiston Konstitutsiyasida uy-joy daxlsizligi huquqiga alohida e'tibor qaratilganligi uning fuqarolar manfaatlarini ta'minlash va himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Baxtsiz hodisa yoki favqulodda vaziyat sodir bo'lganda ma'muriy tartibda ko'chirish, ayniqsa, ijara bilan bog'liq munosabatlarda fuqarolik-huquqiy kafolatlarni kuchaytirish kabi muhim qonunchilik choralarning qabul qilinishi uy-joy daxlsizligi huquqini mustahkamlashga xizmat qildi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida ham tintuv o'tkazilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, ushbu tadbirning qonuniyligi va asoslilikini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi. O'sha davrdagi o'quv qo'llanmalar va ilmiy asarlarda uy-joyga g'ayriqonuniy tajovuzdan himoya qilish va uni qonun bilan kafolatlash muhimligi alohida qayd etilgan.

O'zbekistonda uy-joy daxlsizligi huquqi rivojlanishining uchinchi bosqichi ushbu huquqni tartibga solishga qonunchilik jihatidan puxta yondashilganligini

ko'rsatadi. 1992-yildan boshlab mamlakatning bu sohadagi qonunchilik bazasi jadal sur'atlar bilan rivojlantirildi va tizimlashtirildi. Konstitutsiya va keyingi qonunlarning moddalarida uy-joy daxlsizligi, turarjoy tanlash erkinligi va xususiy mulk huquqi muhimligi ta'kidlangan. 2023-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar davlatning fuqarolarning shaxsiy va daxlsiz huquqlarini, jumladan, uy-joyga bo'lgan huquqini himoya qilish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash bo'yicha doimiy majburiyatlarini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlash va himoya qilish mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi ushbu huquqni amalga oshirish va muhofaza etishni ta'minlovchi usul hamda vositalarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida turarjoyga g'ayriqonuniy kirishdan himoyalani, shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash uchun qo'llanadigan me'yoriy hujjatlar, sud amaliyoti va huquqiy vositalar tahlil qilinadi.

A. Barak, R. Poza, N. MakKormik va F. Shox kabi olimlarning qarashlari hamda bir qator davlatlar tajribasining muvozanatli tahlili shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlar konstitutsiyalarida “home”, “residence”, “dwelling” va “domicile” atamalarining qo'llanishi uy-joy tushunchasining moddiy hudud, yashash maydoni, psixologik xavfsizligi va huquqiy maqomi kabi ko'p qirrali xususiyatlarini aks ettiradi. Shu asosda, qiyosiy huquqshunoslik nuqtayi nazaridan uy-joy daxlsizligining zamonaviy konstitutsiyaviy mohiyati “insonning shaxsiy makonini davlat va boshqa shaxslarning noqonuniy aralashuvidan himoya qiluvchi keng qamrovli huquqiy institut” sifatida namoyon bo'lib, bu shaxsiy daxlsizlik, jamoat xavfsizligi va konstitutsiyaviy qonuniylik o'rtasida barqaror muvozanatni talab qiladi.

Tadqiqotchi uy-joy daxlsizligi kafolatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini bevosita tahlil qilish jarayonida bir qator mamlakatlar konstitutsiyalarini o'rgangan. O'tkazilgan ilmiy-huquqiy tahlillar natijasida xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida uy-joy daxlsizligi huquqini ifodalashda turlicha yondashuvlar va atamalar qo'llanishi aniqlandi. Shu munosabat bilan o'rganilgan konstitutsiyalarni uy-joy daxlsizligini mustahkamlash uchun qo'llanadigan atamalardan kelib chiqqan holda uchta asosiy guruhga bo'lish tavsiya etiladi:

1. “Inviolability of home” atamasi qo'llangan davlatlar (Armaniston, Finlandiya, Xitoy, Misr, Gretsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Braziliya, Belgiya, Estoniya va boshqalar);

2. “Inviolability of residence/domicile/dwelling” atamali qo'llangan davlatlar (Ozarbayjon, Albaniya, Argentina, Moldova, Markaziy Afrika Respublikasi, Chexiya Respublikasi va boshqalar);

3. Uy-joy daxlsizligi huquqi konstitutsiyalarda shaxsiy hayot yoki mulk daxlsizligi tushunchalari bilan bevosita bog'langan mamlakatlar (Belarus, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaponiya, Fransiya, Hindiston va boshqalar).

Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarini qiyosiy o'rganish jarayonida uy-joy tushunchasini ifodalashda turli atamalardan foydalanilganligini kuzatdik. Bu “inviolability of home”, “inviolability of residence”, “inviolability of domicile”, “inviolability of dwelling” kabi atamalarni to'g'ri talqin qilish bilan chambarchas bog'liq. Biz Armaniston, Finlyandiya, Xitoy, Misr, Gretsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Braziliya, Belgiya, Estoniya, Ozarbayjon, Albaniya, Argentina, Moldova,

Markaziy Afrika Respublikasi, Chexiya Respublikasi kabi davlatlarning konstitutsiyalarini o'rganamiz va bu tushunchalarni izohlashga harakat qilamiz.

Muallifning fikricha, uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari quyidagi turlardan iborat:

1. Ko'pgina mamlakatlarda konstitutsiyaviy qoidalar asosida uy-joy daxlsizligi huquqi konstitutsiyada mustahkamlangan. Bu uning oliy yuridik kuchga ega ekanligini va unga zid bo'lgan har qanday qonun haqiqiy emas deb topilishi kerakligini anglatadi. Xorijiy davlatlar, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Kanada konstitutsiyaviy-huquqiy tizimlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, uy-joy daxlsizligi insonning shaxsiy hayoti va xavfsizligini ta'minlovchi asosiy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida mustahkamlangan.

2. Qonunchilik hujjatlariga asoslangan konstitutsiyaviy qoidalardan tashqari, bir qator mamlakatlarda uy-joyni muhofaza qilishga bag'ishlangan maxsus qonunlar mavjud. Bu qonunlarda uy-joyga qanday hollarda va qanday tartibda kirish mumkinligi to'g'risidagi batafsil qoidalar mavjud. Turarjoy daxlsizligi huquqi amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ko'plab xorijiy mamlakatlarda maxsus qonunlarda turarjoyga faqat unda yashovchilarning roziligi bilan yoki qonunda belgilangan ayrim holatlarda – favqulodda vaziyatlar, jinoyatlarning oldini olish, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash asosida kirish tartibi huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan.

3. Sud amaliyoti asosida uy-joy daxlsizligi huquqini himoya qilishda sudlar muhim rol o'ynaydi. Ular uy-joyga noqonuniy kirish bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadi va yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qaror chiqaradi.

4. Ma'muriy tartib-taomillardan kelib chiqib, ayrim mamlakatlarda turarjoyga kirishdan oldin bajarilishi lozim bo'lgan maxsus ma'muriy tartib-taomillar mavjud. Ushbu tartiblar suddan order yoki prokurordan ruxsat olishni o'z ichiga olishi mumkin. Ma'muriy qoidalar o'zboshimchalik bilan bostirib kirishdan qo'shimcha himoya qiladi.

5. Fuqarolik-huquqiy himoya vositalari asosida uy-joyga g'ayriqonuniy ravishda kiritilgan taqdirda, huquqi buzilgan shaxs yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi to'rtinchi qismida mustahkamlab qo'yilgan uy-joy daxlsizligi huquqi inson huquqi bo'lib, mamlakat hududidagi barcha subyektlar, shu jumladan, fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun ta'minlanishi lozim. Bu huquqni cheklashga faqat qat'iy belgilangan hollarda va qonunga muvofiq yo'l qo'yiladi.

Tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, tezkor-qidiruv faoliyati qonuniy asosda va prokurorning sanksiyasi bilan amalga oshirilishi lozimligi, chunki uy-joyga kirish, ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazish faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mustahkamlangan, degan pozitsiyani bildiradi.

Muallifning fikricha, turarjoy daxlsizligi huquqining har qanday cheklanishi qat'iy asoslangan va jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda qonuniylikka rioya etish maqsadlariga mutanosib bo'lishi kerak. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar fuqarolarning shaxsiy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishga, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzishga olib kelmasligi lozim.

Muallif, uy-joyga raqamli tajovuz bo'yicha bir qator zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlarning (Helen Nissenbaum, Sandra Wachter, Daniel J. Solove) tahlili natijasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi to'rtinchi qismiga quyidagi tahrirda o'zgartirish kiritishni taklif etadi:

Hech kim uy-joyga, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas.

Tadqiqotchi tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida uy-joy daxlsizligi huquqini cheklash qonunda belgilangan barcha tartib va sanksiyalarga rioya etilgandagina qonuniy hisoblanadi degan qarashni ilgari suradi.

Muallifning qayd etishicha, tezkor-qidiruv va tergov harakatlaridan tashqari, maxsus qonun bilan tartibga solinadigan favqulodda vaziyatlar ham uy-joy daxlsizligi huquqini cheklashning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni boshqarish tegishli davlat organlariga yuklatiladi. Fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga haqiqiy xavf tug'ilgan taqdirda, ularga zarur harakatlarni amalga oshirish, jumladan, uy-joyga kirish vakolati beriladi.

Tadqiqotchining fikricha, turarjoy daxlsizligi huquqini cheklash asosli bo'lishi, qonun ustuvorligi hamda insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish tamoyillariga mos kelishi va unga qat'iy rioya etilishi lozim.

Muallif fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlashda Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari normalariga rioya qilish, shuningdek, uy-joy daxlsizligi huquqini cheklash to'g'risida qaror qabul qilishda qat'iylik va adolatni ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega degan pozitsiyani ilgari suradi.

Muallifning fikricha, yetakchi huquqshunos olimlar A.V. Deyzi, Y.N. Ryjik, A.V. Mayorov va Y.N. Poperinalar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, shuningdek, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Qozog'iston kabi davlatlar amaliyoti hamda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 8-moddasi bo'yicha pretsedentlar shuni ko'rsatadiki, uy-joy daxlsizligi murakkab, ko'p bosqichli konstitutsiyaviy institut bo'lib, uning samarali ta'minlanishi aniq huquqiy atamalarga qat'iy rioya qilishni, sud nazoratini, qonunda belgilangan cheklovlarning mutanosibligini va shaxsiy hayotga aralashishni talab qiladi. Shuningdek, uy-joy tushunchasini zamonaviy shakllar – ijara, vaqtinchalik turarjoy, avto-uy, konteyner uyi va boshqalarni qamrab olgan holda funksional kengaytirish, ushbu huquq buzilgan taqdirda, ma'naviy zararni qoplash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bunday yondashuv milliy qonunchilikni zamonaviy konstitutsion talablarga moslashtirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Uy-joy daxlsizligi huquqini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobi uy-joy daxlsizligi huquqini samarali himoya qilishga to'sqinlik qilayotgan qonunchilikdagi mavjud muammolar va bo'shliqlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda texnik taraqqiyot va raqamlashtirish kabi zamonaviy muammolar tahlil qilinib, shuningdek, xususiy uy-joylarni ishonchli himoya qilishni ta'minlaydigan va uy-joylarga noqonuniy tajovuzlarning oldini oladigan huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va kafolatlarni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Paragraflarda uy-joy daxlsizligi huquqiga rioya etilishini kafolatlashning konstitutsiyaviy mexanizmlarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Uy-joy daxlsizligi huquqini amalga oshirishda jamoatchilikning roli tahlil qilingan.

Raqamlashtirish va sun'iy intellektning uy-joy daxlsizligi huquqini ta'minlashga ta'siri ko'rib chiqilgan.

A.X. Huade, F. Madiyev, P. Tyurin va L. Lotorevlarning ilmiy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish uy-joy daxlsizligi huquqini konstitutsiyaviy rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini yaxlit tushunish imkonini beradi. Mazkur tadqiqotchilarning izlanishlaridagi metodologik farqlarga qaramay, ularning barchasi ushbu huquqning bugungi sharoitda murakkablashib borayotgan tabiati, raqamli tahdidlarning kuchayishi, davlatning jamoat xavfsizligi sohasidagi funksiyalari kengayayotgani va xususiy subyektlar aralashuvining ortishi kabi omillar uni qayta konseptual talqin etishni talab etayotganini e'tirof etadi. Klassik kafolatlar – sud nazorati, qonuniylik va mutanosiblik tamoyillari muhimligicha qolmoqda, biroq gibril va yashirin (masalan, raqamli) aralashuv shakllariga qarshi turish uchun endilikda yetarli emas. Shu bois muallifning fikricha, uy-joy daxlsizligini ta'minlashning kelgusi rivoji integrativ yondashuvga asoslanishi lozim: konstitutsiyaviy nazorat, samarali protsessual kafolatlar, davlat va nodavlat darajasidagi preventiv mexanizmlar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar manfaatlarini kuchaytirilgan tarzda inobatga olish. Faqat shunday kompleks yondashuvgina uy-joy daxlsizligini insonning shaxsiy hayoti o'zagi sifatida zamonaviy tahdidlar sharoitida ishonchli himoya qilishga qodir bo'ladi.

Muallifning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida uy-joy daxlsizligiga oid qonunchilik va normalarni qo'llash amaliyoti tahlilidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchi, O'zbekistonda uy-joy daxlsizligi masalasiga davlat organlari tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat qonunchiligi fuqarolarning turarjoy daxlsizligi huquqini to'g'ridan to'g'ri mustahkamlaydi, shuningdek, uni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

